



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 79-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI..... 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCES*Article / Original Paper***TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH****Yavkochdieva Dilafruz Egamkulovna**Qashqadaryo viloyati PMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası dots.v/b
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, "Ta'lim texnologiyalari" fanida "Kreator" innovatsion ta'lim texnologiyasini qo'llashning pedagogik jihatlari haqida yoritilgan. Unda "Ta'lim texnologiyalari" fanida "Professional ta'limda texnologik yondashuv" mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyasi modeli, ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi va "Kreator texnologiyasi" qo'llanilgan o'quv topshirig'i namunasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim texnologiyasi, "Kreator" texnologiyasi, innovatsiya, o'quv mashg'ulotlari, innovatsion jarayon.

**APPLICATION OF THE INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGY
"CREATOR" IN THE SUBJECT OF "EDUCATIONAL TECHNOLOGIES****Yavkochdieva Dilafruz Egamkulovna**

is an acting associate professor in the Department of Pedagogy, Psychology, and Educational Management at the Kashkadarya Regional State Educational Service. She holds a PhD in pedagogical sciences.

Annotation. This article examines the essence of innovative educational technologies and the pedagogical aspects of applying the innovative educational technology "Creator" in the academic discipline "Educational Technologies." It presents a model of educational technology on the topic "Technological Approach in Professional Education" in the academic discipline "Educational Technologies," a lecture flow chart, and an example of a learning assignment using the "Creator" technology.

Keywords: Innovative educational technology, "Creator" technology, innovation, learning activities, innovation process.

KIRISH. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan islohotlar barcha sohalaridagi kabi ta'lim sohasida ham o'ziga xos yangiliklarni joriy etish talabini qo'yimoqda. Ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar nafaqat pedagogik faoliyatda ilg'or tajribalarni qo'llashni balki, zamonaviy pedagoglarni tayyorlash, pedgoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlarida yangi innovatsion pedagogik taexnologiya va metodlardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy bilim va malakalarga ega bo'lgan mahoratli pedagoglar yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida mahorat bilan qo'llay oladi. O'z navbatida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim oluvchilar o'quv motivini kuchaytiradi, ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ijobiy samaradorligiga erishishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Innovatsion texnologiya - bu ta'lim oluvchida yangi g'oya, meyor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi:

- 1) g'oyani (muayyan holatda ilmiy kashfiyotni) yaratish;
- 2) fikrni amaliy jihatda rivojlantirish;
- 3) innovatsiyani amaliyotga tatbiq etish.[1].

Ya'ni, innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani ijtimoiy-pedagogik muhitdagi u bilan bog'liq o'zgarishlarni amaliy qo'llash va amalga oshirish bosqichiga olib chiqish jarayoni sifatida qarash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan faoliyat va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantirish innovatsion faoliyatdir. Innovatsion jarayonning rivojlanish bosqichlarining boshqa xususiyatlari ham mavjud.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlar bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu tendensiya fandagi, inson ilmiy tafakkurining zamonaviy uslubini shakllantirishdagi va ta'limning o'zida integratsiya jarayonlari bilan bog'liq.

Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq va to'g'ri ko'rsatish uchun ta'lim tizimida ikkita turdagi ta'lim muassasalarini ajratish mumkin: an'anaviy va rivojlanayotgan. An'anaviy tizimlar bir marta o'rnatilgan tartibni saqlashga qaratilgan barqaror ishlashi bilan ajralib turadi. Rivojlanayotgan tizimlar izlanish rejimi bilan tavsiflanadi.

Muhokama

Ta'limdagi innovatsiyalar - bu pedagogik yoki boshqaruv muammosini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'liq texnologik jarayonlar majmuasini ishlab chiqish va uni ta'lim tashkiloti faoliyatining kundalik amaliyotiga tatbiq etishni o'z ichiga olgan yangi g'oyani kontsepsiyalash natijasidir. Inson faoliyatining boshqa sohalaridan farqli o'laroq, ta'limdagi innovatsiyalar innovatsion jarayonlarning shaxsiy, insonga yo'naltirilgan tomoniga qaratilgan. Ta'lim innovatsiyalarida asosiy narsa - ta'lim faoliyatining asosiy subyektlari (talabalar va o'qituvchilar) o'zgarishi va ta'lim tashkilotining barqaror ishlaydigan ko'p subyekt tizimi sifatida rivojlanishi. Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu har qanday ta'lim sohasida kerakli natijaga erishish uchun ilmiy va amaliy asoslangan usul va vositalar majmuidir. Innovatsion texnologiya - bu muhandislik, texnologiya, mehnatni tashkil etish yoki boshqarish sohasidagi ilmiy yutuqlar va ilg'or tajribalardan foydalanishga asoslangan, ishlab chiqarish tizimi samaradorligini yoki mahsulot sifatini sifatli oshirishni ta'minlaydigan yangilik sifatida "Kreator" texnologiyasini tadqiqotni olib borish davomida ishlab chiqishga muvavvaq bo'lindi.[2].

Kreator texnologiyasi - talabalarining kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan texnologiya (Ing. "creator" - "ijodkor") bo'lib, oliy ta'limda talabalar o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya qo'llanilganida talabalarining ta'lim jarayoniga qiziqishlari oshishi, beriladigan o'quv topshiriqlarini qiziqish bilan bajarishi orqali o'quv materialini puxta o'zlashtirishga erishiladi.

Mazkur texnologiya talabalarining oliy ta'lim jarayonida toliqishini oldini olish, natijador ko'rsatkichlarga erishish, o'quv materialini yoppasiga o'zlashtirish imkoniyatini oshirishga qaratilgan. O'quv mashg'uloti jarayonida talabalar kichik guruhlariga ajratiladi hamda kichik guruhlar ishtirokida:

- o'quv materiali mazmunini yorituvchi rejalar belgilab olinadi;

- o'quv materialini mazmunni yorituvchi adabiyotlar va manbalar to'planadi;
- to'plangan manbalar asosida zarur ma'lumotlar jamlanadi;
- jamlangan ma'lumotlar tahlil qilinadi;
- tahlil natijalari bo'yicha etalon tushunchalar ajratib olinadi va talabalar etalon tushunchalar mazmunini ochib beruvchi fikrlarni qoidalar sifatida aniqlashtirib berishlari kerak.

Talabalarining o'quv mashg'ulotida faolligini oshirishga yo'naltirish orqali mavzuni o'zlashtirishiga erishiladi. O'quv mashg'ulotida esa kim qancha etalon tushunchalar mazmunini ochib berganligi hamda zarur qoidalar aniqlashtirganligiga qarab o'quv natijalari baholanadi.

Natijalar

“Ta’lim texnologiyalari” fanini o’qitishda “Kreator” innovatsion ta’lim texnologiyasini qo’llash o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim oluvchilarda o’quv-bilish faoliyati faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o’rganilayotgan mavzu, muammolar bo’yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o’z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g’oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag’batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

60112400-Professional ta’lim (transport vositalari muhandisligi (avtotransport)) ta’lim yo’nalishi talabalariga o’qitiladigan “Talim texnologiyalari” fanidan “Professional ta’limda texnologik yondashuv” mavzusi bo’yicha “Kreator texnologiyasi” qo’llanilgan o’quv topshirig’i.

1-jadval.

“Ta’lim texnologiyalari” fanidan o’quv mashg’uloti ishlanmasi

MAVZU:	PROFESSIONAL TA’LIMDA TEXNOLOGIK YONDASHUV
“Professional ta’limda texnologik yondashuv” mavzusi bo’yicha ta’lim texnologiyasi modeli	
Mashg’ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 48 ta
Mashg’ulot shakli	Ma’lumotli-ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1.“Texnologik yondashuv” tushunchasining mohiyati va turlari. 2.Professional ta’limda texnologik yondashuvning zaruriyati. 3.Professional ta’limda qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalarining o’ziga xos xususiyatlari. 4.Pedagogik jarayonning texnologik modeli va texnologik xaritasi. 5.Professional ta’limda qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalarining turlari.
O’quv mashg’ulotining maqsadi	“Professional ta’limda texnologik yondashuv” to’g’risida bilim va tasavvurlarni shakllantirish

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
- "Professional ta'limda texnologik yondashuv" mohiyati bilan tanishtirish; - Professional ta'limda texnologik yondashuvning asosiy vazifalari to'g'risida tushuncha berish; - Professional ta'limda texnologik yondashuvning tarkibiy elementlarini tushuntirish; - Professional ta'limda texnologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.	- "Professional ta'limda texnologik yondashuv" mohiyati bilan tanishadilar; - "Professional ta'limda texnologik yondashuv"ning asosiy vazifalari to'g'risida tushuncha beradilar; - "Professional ta'limda texnologik yondashuv"ning tarkibiy elementlarini tushuntiradilar; - Professional ta'limda texnologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradilar.
O'qitish usullari va texnika	Kreator texnologiyasi, Staate texnologiyasi, Blits-so'rov, Zinama-zina strategiyasi, Krossvord metodi va boshqalar
O'qitish vositalari	Axborot texnologiya vositalari, taqdimotlar, elektron va bosma adabiyotlar, ma'ruza matni, tarqatma materiallar.
O'qitish shakllari	Juftlikda, kichik guruhlarda va jamoaviy ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Ta'limning texnik vositalaridan foydalanish imkoni mavjud auditoriya
Monitoring va baholash	Tezkor so'rov, savol-javob, nazorat so'rovlari

2-jadval.**"Professional ta'limda texnologik yondashuv" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
I-bosqich. Kirish (10-daqq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi, hamda mavzuni o'tgan mavzu bilan bog'liqligini tushuntiradi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni, mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar savollar beradilar.
II-bosqich. Asosiy (60-daqq.)	-"Professional ta'limda texnologik yondashuv" mohiyati bilan tanishtirish; -Professional ta'limda texnologik yondashuvning asosiy vazifalari to'g'risida tushuncha berish; -Professional ta'limda texnologik yondashuvning tarkibiy elementlarini tushuntirish;	Tinglaydilar Innovatsion ta'lim texnologiya va metodlarini qo'llanilishi bo'yicha faolliklarini ko'rsatadilar bahs-munozara va taqdimot qiladilar

	-Professional ta'limda texnologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.	
III- bosqich. Yakuniy (10-daqq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Talabalar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi 3.3. Uyga vazifa beriladi. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beriladi.	Tinglaydilar Savol beradilar Topshiriqni yozib oladilar

3-jadval.

“Kreator texnologiyasi” qo'llanilgan o'quv topshirig'i

Etalon tushunchalar	Etalon tushunchalar mazmunini aks ettiradigan qoidalar
Texnologiya	Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi
Texnologik yondashuv	inson va texnik vositalarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan bilimlarni o'qitish va o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir
Gnostik-dinamik yondashuv	Professional ta'limda ushbu yondashuv pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar
Individual faoliyatli yondashuv	Professional ta'limda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar.
Ko'p subyekтли (dialogik) yondashuv	Professional ta'limda ushbu yondashuv innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi

Insonparvarlik yondashuvi	Professional ta'limda ushbu yondashuv innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi.
Individual-ijodiy yondashuv	Professional ta'limda ushbu yondashuv har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi.
Innovatsiya	faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi
Novatsiya	Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga novatsiya (yangilanish) deyiladi
Innovatsiya	Yangi g'oyalar; tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan'anaviy yondashuvlar; odatiy bo'lmagan tashabbuslar; ilg'or ish uslublari
Ta'limni loyihalash	pedagogik faoliyat ko'rinishi bo'lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilma hamda o'qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig'indisiga egaligi bilan tavsiflanadi
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim
O'quv topshiriqlari	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi.

Ta'limdagi innovatsion jarayon - bu ta'lim sifatini oshirishga va ta'lim tashkiloti va ta'lim tizimining rivojlanish maqsadlariga erishishga olib keladigan innovatsiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, joriy etilishi va ko'lamining o'zaro bog'liq bosqichlarini amalga oshirish.

Innovatsion jarayon rivojlanishining uch bosqichi:

- yangi g'oyaning paydo bo'lishi (qidirilishi), mezonlarga ko'ra tanlash;
- innovatsiyalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish (kontentni ishlab chiqish va texnologik innovatsiyalar);
- amalga oshirish va masshtablash (sinov, tarqatish samaradorligini baholash va baholash).[3].

Bu Innovatsion g'oyani, innovatsiyani innovatsiyaga aylantirishni ta'minlaydigan, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Mavzuning mazmunini to'liq o'zlashtirishni baholashda biz ilmiy-tadqiqot faoliyatida individual ravishda aniqlangan kasbiy faoliyat mazmuni, munosabatlar va kompetensiyalarni amalga oshirish darajasiga asoslanadi:

- mavhum fikrlash, kasbiy faoliyatning yangi sohalarini mustaqil rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- kasbiy muammolarni hal qilish, tadqiqot ishlarini boshqarish uchun professional muloqotni amalga oshirishga tayyorlik;
- ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish, ularni fan va amaliyot sohasidagi aniq tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati;
- tadqiqot muammolarini mustaqil hal qilish uchun ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida ishab chiqilgan yangi mualliflik innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish oliy ta'lim amaliyotida kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, "Ta'lim texnologiyalari" fanini o'qitishda "Kreator" innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish asosida yuzaga keladigan munozaraga chorlash, qiziqtirish, ijodiy va amaliy yo'nalganlik kabi didaktik imkoniyatlari talabalarning kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishishini ta'minlaydi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak: mafkuraviy, psixologik va pedagogik, yuqori ixtisoslashgan, uslubiy. Ushbu yo'nalishlar butun o'qish davrida universitetda o'rganiladigan barcha fanlarni o'qitish amaliyotiga singib ketishi kerak. Oliy ta'lim va talabalarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini aniqlashda ilmiy-texnika taraqqiyotidan kelib chiqadigan asosiy qoidalarga tayanish kerak, xususan: fan va texnika rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganish; davlat buyurtmalari va ilmiy-texnika tendensiyalari asosida mutaxassislar profillarini modellashtirish o'quv predmetlarining ko'lamini va mazmunini aniqlashning maksimal mezonlarini belgilash; oliy ta'limning tegishli yo'nalishlari mazmunini ifodalashning maqbul shaklini ishlab chiqish.

"Ta'lim texnologiyalari" fanini o'qitishda qo'llanilgan "Kreator" innovatsion ta'lim texnologiyasi talabalada muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Hamidov J.A. Kasb ta'limi metodikasi.// Darslik. Toshkent "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – B: 282.
2. Yavkochdieva D.E. The use of pedagogical technologies as educational innovation//Университет Григория Сковороды в Переяславе. Международной научно-практической интернет-конференции «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации». – Переяслав, 2020. - № 58. - С.226-230.
3. Явкочдиева Д.Э. Педагогико-психологическая сущность преобразования знаний в умения и навыки в профессиональной ориентации // Проблемы педагогики Научно-методический журнал – Москва, 2021. – № 6 (57) – С. 104-110.
4. Yavkochdiyeva D.E. Innovatsion yondashuv ta'lim tizimini modernizatsiyalash omili sifatida//Zamonaviy ta'lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnal. – Toshkent, 2021. – № 4 (101). – B: 43-50.

5. Yavkochdiyeva D.E. Innovatsion yondashuv asosida yoshlarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish//“Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent. 2021. 4-qism. – B: 91-95.
6. Yavkochdiyeva D.E. Oliy kasbiy ta’lim jarayonida talaba kompetentligini shakllantirishning psixologik-pedagogik shartlari//Kasb-hunar ta’limi.-Toshkent, 2022.- №4. – B: 227-232.
7. Yavkochdiyeva D.E. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish psixologik-pedagogik muammo sifatida// Pedagogika. – Тошкент, 2022.-№2. - С.65-69.
8. Yavkochdiyeva D.E. Bo’lajak o’qituvchilarni maktablarda faoliyat olib borishlari uchun kasbiy tayyorlashning o’ziga xosligi.//Maktab va hayot. – Toshkent, 2022.- №5. – B: 34-37.
9. Явкочдиева Д.Э. Проблемы профессиональной подготовки будущего учителя// Среднее профессиональное образование СПО. – Москва. 2022. №8 (324).- С.54-58. <https://elibrary.ru/item.asp?id=49357777>
10. Yavkochdieva D.E. Development Of Professional Training Of Students In Higher Education As A Factor Of Quality Specialist Training// Journal of Pedagogical Inventions and Practices.2022. ISSN NO: 2770-2367. - С.277-282. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/1449>
11. Yavkochdiyeva D.E. Innovatsion yondashuv asosida texnika oliy o’quv yurti talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash// Scienceproblems.uz. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali. №S/1(3) Toshkent, 2023. 2023. ISSN:2181-1342. 174-183-b. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal>



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com